



(dastlabki ma'lumotlar)

## Sirdaryo viloyatida

### kichik tadbirkorlik

2020– yil yanvar–dekabr



2020– yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **69,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **21,1** birlikni tashkil qildi.

2020– yilning yanvar–dekabrida **2947** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,9** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1184 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 605 ta, sanoatda 527 ta, qurilishda 197 ta, yashash va ovqatlanishda 137 ta, tashish va saqlashda 55 ta tashkil etilgan.

#### 2020– yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019– y.	2020– y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	11026	13360	2334
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3153	2947	-206
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	68,4	69,2	-0,8
Sanoat	%	38,8	37,3	-1,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	95,2	96,6	1,4
Investitsiyalar	%	54,5	44,0	-10,5
Qurilish	%	93,0	97,5	4,5
Savdo	%	76,4	79,6	3,2
Xizmatlar	%	60,3	55,2	-5,1
Yuk tashish	%	96,2	96,3	0,1
Yuk aylanmasi	%	95,8	95,9	0,1
Yo'lovchi tashish	%	95,0	94,8	-0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,5	97,0	-0,5
Eksport	%	98,6	99,3	0,7
Import	%	99,2	96,5	-2,7




### 2020– yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020– yilning yanvar–dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Guliston shahrida – 646 ta, Sirdaryo tumanida – 333 ta, Mirzaobod tumanida – 299 ta, Boyovut tumanida – 268 ta, Oqoltin tumanida – 252 ta va Sayxunobod tumanida – 242 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 89 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019– yil yanvar–dekabr	2020– yil yanvar–dekabr	(+;-)
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3153</b>	<b>2947</b>	<b>-206</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	724	646	-78
Shirin	74	89	15
Yangiyer	283	164	-119
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	230	252	22
Boyovut	269	268	-1
Sayxunobod	250	242	-8
Guliston	261	184	-77
Sardoba	170	241	71
Mirzaobod	252	299	47
Sirdaryo	428	333	-95
Xovos	212	229	17



**2020– yil yanvar–dekabr holatiga ko'ra yangi tashkil  
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shahri - 21,9 %, Sirdaryo tumani - 11,3 %, Mirzaobod tumani - 10,1 %, Boyovut tumani - 9,1 %, Oqoltin tumani - 8,5

%, Sayxunobod tumani 8,2 %, Sardoba tumani 8,2 %, Xovos tumani - 7,8 %, Guliston tumani - 6,2 %, Yangiyer shahri - 5,6 %, Shirin shahri - 3,1 % ga tegishli.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	(+;- )
Jami	3153	2947	-206
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	424	605	181
Sanoat	568	527	-41
Qurilish	317	197	-120
Savdo	1316	1184	-132
Tashish va saqlash	62	55	-7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	259	137	-122
Axborot va aloqa	32	39	7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	32	4
Boshqa faoliyat turlari	147	171	24

**Ma'lumot uchun:** 2020– yilning yanvar–dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda


	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Guliston sh.	724	646	-78
Sirdaryo tumani	428	333	-95
Mirzaobod tumani	252	299	47
Boyovut tumani	269	268	-1
Oqoltin tumani	230	252	22
Sayxunobod tumani	250	242	-8

2020– yilning yanvar–dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida – 646 taga yetdi.




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





## Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*



2020– yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman, shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 42,8 birlik, Sayxunobod tumanida 21,8 birlik, Oqoltin tumanida 21,6 birlik, Yangiyer shahrida 21,5 birlik, Guliston tumanida 21,3 birlik, Mirzaobod tumanida 20,6 birlik, Sirdaryo tumanida 19,0 birlikni tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 13,1 birlikka to'gri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020– yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)



## 2020– yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni\* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020– yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p ko‘rsatkich Guliston shahrida 42,8 birlik, Sayxunobod tumanida 21,8 birlik, Oqoltin tumanida 21,6 birlik, Yangiyer shahrida 21,5 birlik, Guliston tumanida 21,3 birlik, Mirzaobod tumanida 20,6 birlik, Sirdaryo tumanida esa 19,0 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



### • Eng yuqori ko'rsatkich

- Guliston shahri - 42,8 birlik;

### • O'rtacha ko'rsatkich

- Yangiyer shahri - 21,5 birlik;

### • Eng past ko'rsatkich

- Boyovut tumani - 13,1 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Guliston shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Boyovut tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da


2020– yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 % ni tashkil qildi. (2019– yilning yanvar-dekabrida 68,4 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiv hajmiqa nisbatan, % da)



### 2020– yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Sirdaryo viloyati</b>	37,3	97,5	55,2	44,0
<i>shaharlar:</i>				
Guliston	75,4	98,6	35,0	49,0
Shirin	1,0	100,0	90,3	5,8
Yangiyer	60,1	100,0	81,7	83,9
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	62,6	99,8	68,0	32,1
Boyovut	52,4	99,4	53,0	58,5
Sayxunobod	61,0	99,8	56,6	94,4
Guliston	68,3	99,1	68,5	90,2
Sardoba	86,8	71,7	67,0	12,7
Mirzaobod	40,4	88,4	73,8	36,6
Sirdaryo	65,1	99,4	75,6	51,7
Xovos	75,8	99,4	69,9	76,6

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**  
Sardoba (86,8 %),  
Xovos (75,8 %),  
Guliston sh. (75,4 %) va Guliston (68,3 %) tumanlarida.

**Qurilishda-**  
Yangiyer sh. (100,0 %),  
Shirin sh. (100,0 %),  
Oqoltin (99,8 %),  
Sayxunobod (99,8 %),  
Xovos (99,4 %) va Sirdaryo (99,4 %) tumanlarida.

**Xizmatlarda-**  
Shirin sh. (90,3 %),  
Yangiyer sh. (81,7 %),  
Sirdaryo (75,6 %), Mirzaobod (73,8 %), Xovos (69,9 %) va Guliston (68,5 %) tumanlarida.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabrida

- The infographic consists of eight numbered items, each containing a hexagonal icon and a corresponding text description. The icons represent various sectors: 1. Industrial production (factory), 2. Investments (coins), 3. Construction (house with key), 4. Services (handcart), 5. Retail trade (shopping cart), 6. Exports (truck with clock), 7. Motor transport (truck), and 8. Road transport (car). Each item is connected by a line to its respective text.

  - 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2955,4 mlrd. so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 37,3 % i) ni tashkil qildi;
  - 2 3159,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 44,0 % i) o'zlashtirildi va 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 89,4 % ni tashkil qildi;
  - 3 2136,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 97,5 % i) bajarildi va 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi;
  - 4 1785,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 55,2 % i), 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 99,3 % ni tashkil qildi;
  - 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 79,6 % i yoki 2855,4 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
  - 6 176,8 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 99,3 % i) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
  - 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,3 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 100,1 % i) ko'payishi ta'minlandi;
  - 8 yo'lovchi aylanmasining esa 97,0 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 99,5 % i) ta'minlandi.




## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagи ulushi, % da



2020– yil yanvar–dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Guliston tumani - 100,0 %, Mirzaobd tumani - 100,0 %, Boyovut tumanida - 100,0 %, Sardoba tumanida - 100,0 %, Shirin shahrida - 100,0 %, Sayxunobod tumanida - 100,0 %, Oqoltin tumanida - 100,0 %, Xovos tumanida - 100,0 %, Yangiyer shahrida - 100,0 %, Guliston shahrida - 99,8 %, Sirdaryo tumanida - 97,2 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020– yil yanvar–dekabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida – 100,0 %, Oqoltin tumanida – 100,0 %, Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Shirin shahrida – 100,0 %, Sardoba tumanida – 99,9 %, Boyovut tumanida – 99,3 %, Sirdaryo tumanida – 98,9 %, Guliston shahrida – 98,1 %, Mirzaobod tumanida – 97,1 % ni tashkil etdi.



## 2020– yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (860,6 mlrd. so‘m), Guliston shahrida (705,2 mlrd. so‘m), Yangiyer shahrida (337,2 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (204,1 mlrd. so‘m), Sayxunobod tumanida (194,5 mlrd. so‘m), Boyovut tumanida (177,7 mlrd. so‘m), Xovos tumanida (156,7 mlrd. so‘m) va Sardoba (109,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shirin shahrida (32,8 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.






## 2020– yil yanvar–dekabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumani (86,8 %), Xovos tumani (75,8 %), Guliston shahri (75,4 %), Guliston tumani (68,3 %), Sirdaryo tumani (65,1 %), Oqoltin (62,6 %), Sayxunobod tumani (61,0 %), Yangiyer shahri (60,1 %), Boyovut tumani (52,4 %) va Mirzaobod tumani (40,4 %) tumanlari tashkil etdi. Shirin shahrida (1,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.



## 2020–yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Sirdaryo tumani 754,2 mld. so‘m (2019 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o’sish sur’ati 109,0 %), Guliston shahrida 274,1 mld. so‘m (106,1 %), Yangiyer shahrida 243,2 mld. so‘m (103,3 %), Oqoltin tumani 233,8 mld. so‘m (104,7 %), Mirzaobod tumani 219,0 mld. so‘m (89,3 %), Boyovut 129,2 mld. so‘m (100,1 %) va Sardoba 121,6 mld. so‘m (107,7 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



## 2020– yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri 743,1 mldr. so‘m (2019 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o’sish sur’ati 106,5 %), Sirdaryo tumani 293,9 mldr. so‘m (104,6 %), Yangiyer shahri 144,0 mldr. so‘m (105,4 %), Boyovut tumani 68,2 mldr. so‘m (113,1 %), Mirzaobod tumani 78,4 mldr. so‘m (111,1 %) hamda Oqoltin tumanida 113,8 mldr. so‘m (108,0 %) qayd etildi.





## 2020– yilning yanvar–dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p xizmatlar hajmi Guliston shahri 506,1 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar –dekabriga nisbatan o’sish sur’ati 97,7 %), Sirdaryo tumani 330,2 mlrd. so‘m (99,4 %), Yangiyer shahri 205,4 mlrd. so‘m (100,2 %), Mirzaobod tumani 130,9 mlrd. so‘m (100,2 %), Xovos tumani 112,5 mlrd. so‘m (99,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020– yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **460** ta respondentlar ishtirok etdi.


### 2020– yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11,1 % (51 ta), qurilishda – 12,8 % (59 ta), sanoatda – 13,9 % (64 ta), xizmatlar sohasida – 26,3 % (121 ta), savdoda – 35,9 % (165 ta) ni tashkil etdi.

\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020– yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi  
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020– yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan  
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020– yilning IV choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida 29,2 punktga, sanoatda 27,6 punktga, qurilishda 12,0 punktga, savdoda 10,9 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish korxonalarida 17,8 punktga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,6 punktga, savdoda 8,8 punktga, xizmatlar sohasida 7,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019–2020– yillarda IV chorakdagи iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi sanoat sohasida 17,6 punktga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,3 punktga, qurilishda 11,2 punktga, savdoda 5,0 punktga, ximatlar sohasida 1,5 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qurilishda 15,1 punktga, sanoat sohasida 14,7 punktga, savdoda 1,4 punktga, ximatlar sohasida 1,1 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda qurilish sohasidan tashqari iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019–2020– yillarda IV chorakdagи iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020– yilning IV choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 58 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 9 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 15,5 % i), qurilish – 4 ta (5,2 % i), savdo – 26 ta (44,8 % i), xizmatlar – 8 ta (13,8 % i), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12 ta (20,7 % i).


**2020– yil IV chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



## 2020– yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



## 2020– yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan qurilish korxonalarida 25,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 16,7 punktga, xizmatlar sohasida 8,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushining kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 33,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 33,3 punktga, xizmatlar sohasida 25,0 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

### 2019–2020–yillar IV chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020–yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 41,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 25,0 punktga, qurilishda 8,3 punktga, xizmatlar sohasida 4,2 punktga, savdoda 2,4 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 12,5 punktga ko'paydi.



### 2019–2020–yil IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 236-86-16